O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 1(091):81'22

Ziyoda AKBARQULOVA,
Mustaqil tadqiqotchi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: a.ziyoda@gmail.com, https://orcid.org/0009-0002-9818-3635

Dotsent B.Nabiyev taqrizi asosida

RAMZ TUSHUNCHASINING SHARQ VA G‘ARB FALSAFIY TAFAKKURIDA TALQINI

Annotatsiya
Maqolada ramz tushunchasining Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurida talqin qilinishi tahlil qilingan. G‘arb an’anasida Platon, Aristotel va stoiklardan Avgustin va o‘rta asrlar ramziyligi orqali Ch.S.Pirs, Ch.Ogden va A.Richards, Ch.Morris, E.Kassirer va K.G.Yunggacha davom etgan yo‘nalish, shuningdek, A.F.Losev, S.S.Averinsev, M.K.Mamardashvili va A.M.Pyatigorskiy vakili bo‘lgan rus falsafiy maktabi qarashlari yoritilgan. Sharq an’anasida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Nasiriddin Tusiyning so‘zning ma’no anglatish imkoniyatlari haqidagi qarashlari hamda tasavvufda ramzning yashirin ma’noga ishora sifatidagi talqini ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: ramz, belgi, ishora, semiotika, dalolat, ramziy shakllar, arxetip, stoiklar, Ibn Sino, Nasiriddin Tusiy, Sharq va G‘arb, ma’naviyat.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ СИМВОЛА В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ

Аннотация
В статье анализируются особенности интерпретации понятия символа в восточной и западной философской мысли. В рамках западной философской традиции рассматривается развитие представлений о символе от Платона, Аристотеля и стоиков через учение Августина и средневековый символизм до концепций Ч. С. Пирса, Ч. Огдена и А. Ричардса, Ч. Морриса, Э. Кассирера и К. Г. Юнга. Освещаются также взгляды представителей русской философской школы, в частности А. Ф. Лосева, С. С. Аверинцева, М. К. Мамардашвили и А. М. Пятигорского. В контексте восточной философской традиции исследуются воззрения Абу Насра аль-Фараби, Абу Али ибн Сины и Насир ад-Дина ат-Туси относительно способности слова выражать и передавать значение, а также рассматривается суфийская интерпретация символа как средства указания на скрытые и сокровенные смыслы.
Ключевые слова: символ, знак, указание, семиотика, обозначение, символические формы, архетип, стоики, Ибн Сина, Насир ад-Дин ат-Туси, Восток и Запад, духовность.

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF SYMBOL IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHICAL THOUGHT

Annotation
The article analyzes how the concept of symbol has been interpreted in Eastern and Western philosophical thought. In the Western tradition, the line running from Plato, Aristotle and the Stoics through Augustine and medieval symbolism to C.S. Peirce, C.K. Ogden and I.A. Richards, C. Morris, E. Cassirer and C.G. Jung is traced, together with the Russian philosophical school represented by A.F. Losev, S.S. Averintsev, M.K. Mamardashvili and A.M. Pyatigorsky. In the Eastern tradition, the views of al-Farabi, Ibn Sina and Nasir al-Din al-Tusi on the signifying capacity of words, and the Sufi understanding of symbol as a pointer (ishara) to hidden meaning, are examined.
Keywords: symbol, sign, ishara, semiotics, dalala, symbolic forms, archetype, Stoics, Ibn Sina, Nasir al-Din al-Tusi, East and West, spirituality.

Kirish. Inson dunyoni bevosita emas, balki ramzlar orqali idrok etadi. Harflar tovushlarning, so‘zlar narsa va tushunchalarning ramzi bo‘lib, voqelik ongda nutq vositasida ramziy tarzda aks etadi. Shu ma’noda inson tafakkurining o‘zi ramziy xususiyatga ega. Til, din, san’at, fan va davlat ramzlari – barchasi insonning mavhum g‘oyalarni hissiy idrok etiladigan shaklga keltirish qobiliyatiga tayanadi.

Ramz muammosi ko‘plab fanlarda jumladan falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya kesishmasida turadi. O‘zbek ilmiy adabiyotida ramz ko‘proq badiiy obraz va adabiy usul sifatida o‘rganilgan, uning falsafiy talqinini Sharq va G‘arb tafakkuri kesimida qiyosiy tahlil qilgan tadqiqotlar esa nisbatan kam. Holbuki, bu ikki an’ana ramzga turlicha yondashgan: biri uni ko‘proq mantiqiy belgi sifatida, ikkinchisi esa ko‘rinmas haqiqatga ishora sifatida tushungan.

Masala bugungi kunda amaliy ahamiyat ham kasb etmoqda. Raqamli muhitda ramzlar – emblema, logotip, emoji, vizual belgi – shiddat bilan ko‘payib, ularning mazmuni tez-tez o‘zgarmoqda. Qadimiy ramzning butunlay teskari ma’noga ega bo‘lib qolishi holatlari ham tarixda uchraydi. Shu sababli ramz tabiatini chuqur anglash ma’naviy-ma’rifiy ishda yoshlarga ramzlarning faqat tashqi shaklini emas, balki ularning tarixiy va ma’naviy mazmunini yetkazish uchun ham zarurdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida simvol (yunoncha symbolon – ramz, shartli belgi, tamg‘a yoki nishon) o‘z tabiatiga ko‘ra moddiy yoki ma’naviy hodisa bo‘lib, muayyan g‘oya yoki tushunchani obrazli, ya’ni timsol tarzida ifoda etishi qayd etilgan. Unda ta’kidlanishicha, simvol oddiy yozma yoki tovushli til belgilaridan farqli o‘laroq, olamning muayyan hodisasini emas, balki hissiy yoki mantiqiy obraz vositasida biror mavhum tushunchani bilvosita aks ettiradi [1]. Yunoncha symbolon so‘zi dastlab tanib olish belgisini anglatgan,

keyinchalik esa keng ma’nodagi belgi va ramz ma’nosini olgan.

Ramz va belgi o‘rtasidagi farq masalaning markaziy nuqtasidir. Belgi o‘zi ifodalaydigan obyektni bevosita ko‘rsatadi, ramzning ma’nosi esa obyektga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishora qilmaydi. Belgi ramzga faqat unga biriktirilgan ma’no muayyan ijtimoiy jamoa uchun umume’tirof etilgan bo‘lgandagina aylanadi. Bunda odamlar ramzlashtirilgan obyektning o‘ziga emas, balki unga shartli ravishda bog‘langan mavhum ma’no yoki ma’nolar majmuiga munosabat bildiradi. Shu sababli ramzning mazmuni odatda so‘z bilan to‘liq ifodalanmaydi: u predmetli obraz bilan unga joylangan ma’noni intuitiv tarzda bog‘lash orqali ochiladi.

G‘arb falsafasida ramz haqidagi dastlabki qarashlar antik davrda shakllangan. Platon ramzlarni “haqiqiy borliq”ning birlamchi olamidan olingan g‘oyalarni ifodalovchi belgilar sifatida ko‘rgan. Aristotel “Talqin haqida” asarida og‘zaki so‘zlarni ruhiy holatlarning, yozma so‘zlarni esa og‘zaki so‘zlarning ramzlari deb atagan hamda ular barcha xalqlarda bir xil emasligini, ya’ni shartli xarakterga ega ekanini ko‘rsatgan [2]. Bu fikr keyinchalik G‘arbda ramzni kelishuv asosidagi belgi sifatida talqin qilish an’anasining boshlanishi bo‘ldi.

Stoiklar – Zenon, Xrisipp va keyinchalik Seneka belgi masalasini mantiq doirasida tizimli o‘rgangan. Ular ifodalovchi, ifodalanuvchi ma’no va real obyektni ajratib, belgining uch tarkibli tuzilishini ko‘rsatgan. Ramzlarning narsa-hodisalarni qulay va tejamli ifodalash xususiyati aynan antik Yunoniston va Rimda ilk bor ilmiy tadqiq etilgani bejiz emas [1]. Stoiklarning bu qarashi ming yillar o‘tib yaratilgan semiotik uchburchak nazariyasining ildizi hisoblanadi.

O‘rta asrlarda ramz talqini diniy-teologik mazmun kasb etdi. Avgustin “Xristian ta’limoti haqida” asarida tabiiy belgilar (masalan, tutun olovning belgisi sifatida) va inson tomonidan ongli ravishda beriladigan belgilarni ajratib, butun olamni ilohiy ma’nolarni tashuvchi belgilar tizimi sifatida talqin qilgan [3]. M.Pasturoning ko‘rsatishicha, o‘rta asr kishisi uchun ko‘rinadigan har qanday narsa – rang, hayvon, o‘simlik, son – ko‘rinmas voqelikka ishora qiluvchi ramz bo‘lgan, tafakkur esa analogiya asosida qurilgan [4]. Shu jihatdan o‘rta asr G‘arb ramziyligi Sharq tafakkuriga ancha yaqin turadi.

Sharq falsafasida ramz masalasi ikki yo‘nalishda rivojlangan: mantiqiy-lingvistik va irfoniy-tasavvufiy yo‘nalishlar. Birinchi yo‘nalish Aristotel merosini ijodiy o‘zlashtirgan musulmon faylasuflari bilan bog‘liq. Abu Nasr Forobiy “Harflar kitobi”da so‘z va harflarning kelib chiqishini, ularning tushunchalar hamda narsalar bilan munosabatini, xalqlar tili qanday qilib kelishuv asosida shakllanishini tahlil qilgan [5]. Uning fikricha, til belgilarining ma’nosi jamoaning umumiy kelishuvi bilan belgilanadi.

Abu Ali ibn Sino “Ishoralar va tanbehlar” asarining mantiq qismida so‘zning ma’noga dalolat qilishining uch turini ajratgan: so‘z ma’noning butuniga to‘liq mos kelishi (mutobaqa), uning bir qismini o‘z ichiga olishi (tazammun) va ma’noga u bilan lozim bo‘lgan boshqa ma’no orqali ishora qilishi (iltizom) [6]. Bu tasnif belgi va ma’no munosabatini G‘arbdagidan ancha oldin nozik tahlil qilganini ko‘rsatadi. Asarning “Ishoralar” deb nomlanishi ham e’tiborga loyiq: muallif ba’zi haqiqatlarni ochiq bayon qilmay, o‘quvchini o‘zi anglab yetishga undovchi ishoralar shaklida beradi. Ibn Sinoning “Hayy ibn Yaqzon” va “Qush risolasi” kabi ramziy qissalari esa falsafiy haqiqatni badiiy ramz orqali ifodalashning yorqin namunasidir.

Nasiriddin Tusiy Ibn Sinoning “Ishoralar va tanbehlar” asariga sharh yozgan va fors tilidagi “Asos al-iqtibos” mantiqiy asarida belgilar va ularning dalolati masalasini yanada rivojlantirgan [7]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida Nasiriddin Tusiy va Abu Ali ibn Sino simvol va belgilarning gnoseologik imkoniyatlari xususida qimmatli fikrlar bildirgani alohida qayd etilgan. Demak, Sharq mutafakkirlari ramzni faqat his-tuyg‘u yoki badiiy obraz emas, balki bilish vositasi sifatida ham o‘rgangan.

Ikkinchi yo‘nalish – tasavvufda ramz va ishora tushunchalari markaziy o‘rin egallagan. Bu yerda ramz zohiriy so‘z yoki obraz ortida yashiringan botiniy haqiqatga ishora sifatida tushuniladi. Tasavvuf adabiyotidagi may, soqiy, yor, parvona va sham’ kabi obrazlar ilohiy ishq va ma’rifat yo‘lining ramzlaridir. Bunda ramzning ma’nosi kelishuv bilan emas, balki ruhiy tajriba va kamolot darajasi bilan ochiladi: bir xil ramzni turli darajadagi kishi turlicha anglaydi. Sharq tafakkurida ramzning bu ko‘p qatlamliligi uning bilish va tarbiya vositasi sifatidagi o‘ziga xosligini belgilaydi.

G‘arbda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ramz masalasi yana kun tartibiga qo‘yildi, bu jarayon matematik yoki simvolik mantiqning shakllanishi bilan tezlashdi. Pragmatizm asoschilaridan biri Ch.S.Pirs belgilarni ikona (o‘xshashlikka asoslangan), indeks (sababiy yoki fazoviy bog‘liqlikka asoslangan) va simvol (faqat kelishuv va odatga asoslangan) turlariga ajratgan [8]. Pirs talqinida simvol obyekt bilan tabiiy aloqaga ega bo‘lmagan, uning ma’nosi faqat talqin qiluvchi jamoaning qoidasi bilan belgilanadigan belgidir.

Ch.Ogden va A.Richards 1923-yilda nashr etilgan “Ma’noning ma’nosi” asarida simvol, fikr va referent o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi mashhur semiotik uchburchakni taklif etgan. Unga ko‘ra, simvol obyekt bilan bevosita emas, balki fikr orqali bog‘lanadi [9]. Ch.Morris esa semiotikani sintaktika, semantika va pragmatikaga ajratib, belgilar nazariyasini mustaqil fan sifatida asoslagan [10]. Shu tariqa G‘arbda ramz tobora mantiqiy, formal va texnik tahlil obyektiga aylandi. Bugungi kunda simvollar imkoniyatlaridan kompyuterlashtirish, avtomatik boshqaruv va axborot tizimlarida keng foydalanilishi ham shu yo‘nalishning natijasidir.

Biroq G‘arb tafakkurida bu formallashtirishga muqobil yo‘nalish ham mavjud bo‘lgan. Marburg neokantchilik maktabi vakili E.Kassirer bilish jarayonini tushunchalar hosil qilish jarayoni sifatida ko‘rib, uning uchun moddiy obyekt yoki jarayonlarni ramzlashtirish zarur deb hisoblagan va til, mif, din, fan hamda san’atni “ramziy shakllar” sifatida tahlil qilgan [11]. K.G.Yung esa suv, daraxt, quyosh, qon kabi universal ramzlarni jamoaviy ongsizlikda saqlanadigan arxetiplar bilan bog‘lagan [12]. Yung talqinida ramz shartli belgi emas, balki inson ruhiyatining chuqur qatlamlaridan kelib chiqadigan va hech qachon to‘liq izohlab bo‘lmaydigan obrazdir.

Rus falsafiy maktabi ramzning ontologik tabiatiga alohida e’tibor qaratgan. A.F.Losev ramzni “g‘oya va narsaning substansial ayniyati” deb ta’riflagan [13]. Uning fikricha, ramzda g‘oya narsadan tashqarida emas, balki narsaning o‘zida mavjud bo‘ladi, shu sababli ramz allegoriyadan farqli ravishda cheksiz ma’no qatlamlariga ega. S.S.Averinsev ham ramzning ma’nosini bir martalik izoh bilan tugatib bo‘lmasligini, u doimo yangi talqinlarga ochiq qolishini ta’kidlagan [14]. M.K.Mamardashvili va A.M.Pyatigorskiy esa har qanday ramz obrazni o‘z ichiga olsa-da, unga qisqarib qolmasligini, obraz va ma’no bir-birisiz mavjud bo‘lmaydigan ikki unsur ekanini va ramzlar narsa sifatida emas, faqat talqinlar ichidagina ramz sifatida mavjud bo‘lishini ko‘rsatgan [15].

Rus maktabining bu qarashlari Sharq tafakkuriga yaqin ekani ko‘zga tashlanadi. Losevning ramzda g‘oya va narsa birligi haqidagi fikri tasavvufdagi zohir va botin birligi g‘oyasiga, Mamardashvili va Pyatigorskiyning ramz faqat talqinda yashashi haqidagi xulosasi esa ramz ma’nosi talqin qiluvchining ruhiy darajasiga qarab ochilishi haqidagi Sharq qarashiga hamohangdir.

Natijalar va Muhokama. G‘arb tafakkurining asosiy yo‘nalishi esa ramzni shartli belgi sifatida ratsionallashtirish va formallashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘l stoiklar mantiqidan simvolik mantiq va zamonaviy semiotikagacha davom etgan. Sharq tafakkuri esa ramzning ontologik va axloqiy teranligini saqlab qolgan: unda ramz nafaqat ma’lumot beradi, balki insonni ko‘rinmas haqiqatni anglashga, ruhiy kamolotga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, bu farqni mutlaqlashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Birinchidan, ikki an’ana umumiy yunon falsafiy merosiga tayanadi: Forobiy, Ibn Sino va Tusiyning dalolat nazariyasi Aristotel mantiqining ijodiy davomi hisoblanadi. Ikkinchidan, o‘rta asr G‘arb ramziyligi va XX asrda Kassirer, Yung, Losev, Mamardashvili kabi mutafakkirlar ramzning ontologik va ma’naviy teranligini himoya qilgan. Demak, ikki an’ana o‘rtasidagi chegara madaniyatlar emas, balki ramzga ikki xil yondashuv – uni shartli belgi sifatida ko‘rish va uni ma’no olamiga eshik sifatida ko‘rish o‘rtasidan o‘tadi.

Ramzning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini uning funksiyalari orqali aniqroq ko‘rish mumkin. Tadqiqotchilar ramzning uch asosiy vazifasini ajratadi: axborot, kommunikativ va muhofaza (konservativ) funksiyalari [16, 81]. Axborot funksiyasi ramzning muayyan g‘oya yoki bilimni ixcham shaklda saqlashida, kommunikativ funksiya uning jamoa a’zolari o‘rtasida umumiy tushunish vositasi bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Muhofaza funksiyasi esa ramzning qadriyat va an’analarni avlodlararo uzatib, ijtimoiy xotirani saqlashida ko‘rinadi.

Ijtimoiy ramziylikning tarixiy rivoji ham e’tiborga loyiq. Maqom ramzlari ibtidoiy jamiyatdayoq paydo bo‘lgan va “o‘zimiz”ning urug‘i, qabilasi haqidagi guruhiy o‘zlikni anglash bilan bog‘liq bo‘lgan. Davlatli jamiyatlarda esa ilgarigi ayrim ramzlar yangi ramzlarga aylangan [17]. Bu kuzatish ramzning tarixiy davomiylikni ta’minlovchi xususiyatini, ya’ni qadimiy urug‘ belgisi keyinchalik davlat va millat ramziga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ramziy harakat tarixan real ehtiyojni qondirishga qaratilgan oqilona harakatdan kelib chiqib, vaqt o‘tishi bilan an’anaviy-ramziy xarakter kasb etadi, ba’zan esa ma’nosini yo‘qotib, amaliyotdan chiqib ketadi [17]. Bu nazariy xulosalar ma’naviy-ma’rifiy ish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Agar ramzning ma’nosi faqat talqin ichida yashasa, ramzni o‘rgatish uning tashqi shaklini yodlatish bilan cheklanmasligi, balki uning tarixiy va ma’naviy mazmunini tushuntirishni ham o‘z ichiga olishi kerak. Aks holda ramz o‘z mazmunidan ajralib, ramziy harakat oddiy odatga aylanadi. Sharq tafakkuridagi ramzni ma’rifat va tarbiya vositasi sifatida ko‘rish an’anasi bu jihatdan zamonaviy ma’naviy tarbiya uchun qimmatli metodologik manba bo‘la oladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida, ramzlar g‘oya yoki mavhum tushunchani obrazli shaklda bilvosita ifodalovchi, ma’nosi muayyan jamoa uchun umume’tirof etilgan va hech qachon bir martalik izoh bilan tugamaydigan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir [15].

G‘arb falsafasida ramz talqini Platon, Aristotel va stoiklardan boshlanib, o‘rta asrlarda diniy-analogik mazmun kasb etgan, Yangi davrda esa Pirs, Ogden va Richards, Morris asarlarida shartli belgi sifatida formallashtirilgan [10]. Sharq falsafasida Forobiy, Ibn Sino va Tusiy ramz va belgining gnoseologik imkoniyatlarini dalolat nazariyasi doirasida chuqur tahlil qilgan, tasavvuf esa ramzni zohir va botin o‘rtasidagi ko‘prik sifatida talqin etgan. Qiyosiy tahlillarda G‘arb tafakkurining asosiy yo‘nalishi ramzni ratsionallashtirishga, Sharq tafakkurining asosiy yo‘nalishi esa uning ontologik va axloqiy teranligini saqlashga qaratilganini ko‘rsatdi. Ayni paytda ikki an’ana umumiy yunon merosiga tayanadi va Kassirer, Yung, Losev, Mamardashvili kabi G‘arb va rus mutafakkirlarining qarashlari Sharq tafakkuriga yaqinlashadi. Ramzning axborot, kommunikativ va muhofaza funksiyalari uni ma’naviy-ma’rifiy ishning muhim vositasiga aylantiradi. Shu bois yoshlar tarbiyasida ramzlarning shakli bilan birga ularning tarixiy va ma’naviy mazmunini ochib berishga alohida e’tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Simvol” maqolasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.
2. Aristotle. Categories and De Interpretatione / Transl. with notes by J.L. Ackrill. Oxford: Clarendon Press, 1963.
3. Augustine. On Christian Doctrine / Transl. by D.W. Robertson. Indianapolis: Bobbs-Merrill, 1958.
4. Пастуро М. Символическая история европейского Средневековья / Пер. с франц. Е. Решетниковой. – СПб.: Alexandria, 2012. – 448 с.
5. Al-Farabi. Kitab al-Huruf (Book of Letters) / Ed. by M. Mahdi. Beirut: Dar el-Machreq, 1969.
6. Ibn Sina. Remarks and Admonitions. Part One: Logic / Transl. by S.C. Inati. Toronto: Pontifical Institute of Mediaeval Studies, 1984.
7. Nasir al-Din al-Tusi. Asas al-iqtibas / Ed. by M. Mudarris Razavi. Tehran: Tehran University Press, 1947.
8. Peirce, C.S. (1931–1958). Collected Papers of Charles Sanders Peirce. Vols. 1–8. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Ogden, C.K., Richards, I.A. (1923). The Meaning of Meaning. London: Kegan Paul, Trench, Trubner & Co.
10. Morris, C.W. (1938). Foundations of the Theory of Signs. Chicago: University of Chicago Press.
11. Cassirer, E. (1923–1929). Philosophie der symbolischen Formen. Bd. 1–3. Berlin: Bruno Cassirer.
12. Jung, C.G. (Ed.). (1964). Man and His Symbols. London: Aldus Books.
13. Лосев А.Ф. Очерки античного символизма и мифологии. – М.: Мысль, 1993.
14. Аверинцев С.С. Символ // Аверинцев С.С. София-Логос. Словарь. – 2-е изд., испр. – Киев: Дух і Літера, 2001. – С. 155–161.
15. Мамардашвили М.К., Пятигорский А.М. Символ и сознание. Метафизические рассуждения о сознании, символике и языке / Под ред. Ю.П. Сенокосова. – М.: Языки русской культуры, 1997.
16. Аверина О.Р., Байков Н.М. Экстремистская символика в интернет-пространстве как фактор угрозы социализации молодежи // Власть и управление на Востоке России. – 2017. – № 3 (80). – С. 79–86.
17. Кремлёв Н.Т. Символика социальная // Социологический словарь / Отв. ред. Г.В. Осипов, Л.Н. Москвичёв. – М., 2014. – С. 413–414.